Халқ депутатлари Учқудуқ туман Кенгашининг

Қ А Р О Р И

Uchquduq tuman A.Temur - 28 tel: (79) 222-00-05

2021 - yil 30 - dekabr VI-41-93-5-76-K/21 Uchquduq tumani hokimligi

Tumanning 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi” 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Uchquduq tumanining mahalliy byudjeti 2022 yil uchun daromadlari **50 643,2 mln.so‘m,** xarajatlari **86 782,4 mln.so‘mga** tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Uchquduq tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga, 2022 yil uchun tuman byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjet daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 818,7 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Tuman byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 532,1 mln. so‘mni hamda tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil

1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining ulushiga muvofiq.

b) viloyat byudjeti hamda tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilingan
63 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) tuman mahalliy byudjetiga 10 foiz ajratma qilinishi hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan 50 foiz tushumlari tuman mahalliy byudjetiga ajratma qilinishi belgilansin.

10. Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi farmoyishlari tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

tuman hokimi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berish sharti bilan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qaror va farmoyishlarni qabul qiladi.

11. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bafoyev), moliya bo‘limi (J.Bobomurodov), davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev), mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev) tegishli mas’ullar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”da belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali er va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev), kadastr bo‘limi (O.Yorqulov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev), tegishli mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin. Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Uchquduq tuman bo‘limi (T.Sirojov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (F.Shokirov), tegishli mas’ullar bilan birgalikda jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman hokimi o‘rinbosari (F. G‘afforov), davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Jumayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va videomateriallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auction» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev) tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari bilan birgalikda tumanda fermer xo‘jaliklari va boshqa korxonalarga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Moliya bo‘limi (J.Bobomurodov) va boshqa tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

21. Qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati,

shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimligi mazkur Qonunga asosan tegishli ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini tegishlililigi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bafoyev), moliya bo‘limi (J.Bobomurodov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev)lar byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun tegishliligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

24. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Shodiyev) Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (R.Qodirova),

“UCHQUDUQ” gazetasi tahririyatiga:

mazkur qaror “UCHQUDUQ” gazetasida rasmiy e’lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bafoyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Xikmatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Xamroyev**

Халқ депутатлари Учқудуқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
1-илова

Uchquduq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining

2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**50 643 200**
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 007 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 673 200
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	12 000
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 105 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	375 000
6	Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	2 343 000
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	14 006 000
8	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	4 802 000
9	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	1 320 000

Халқ депутатлари Учқудуқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Uchquduq tumani mahalliy byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**86 782 448**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**86 782 448**
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	**0**
1	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**12 905 981**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 905 981
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**9 281 633**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 281 633
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash bo‘yicha**	**29 068 907**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	29 068 907
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Madaniyat bo‘limi**	**1 656 315**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 656 315
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**1 203 291**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 203 291**
6	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**60 023**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	60 023
7	**Jismoniy tarbiya va sport soxasi bo‘yicha**	**2 320 866**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 320 866
8	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish soxasi bo‘yicha**	**1 241 456**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 241 456
9	**Maxalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**272 246**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	272 246
10	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**13 419 267**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 419 267
11	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga**	**7 500 829**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 500 829
12	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi	**4 093 512**
113	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari saqlash xarajatlari	**2 939 420**
114	Zahira jamg‘armasi xarajatlari	**818 702**

Халқ депутатлари Учқудуқ туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Er osti boyliklari-dan foydalan-ganlik uchun soliq noruda	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	Jismoniy shaxslar-ning mol-mulkiga solinadi-gan soliq
1	Uchquduq tumani	50	10	100	100	100	100	100

Халқ депутатлари Учқудуқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
4-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**50 643 200.0**	**86 782 448.0**
Uchquduq tumani	50 643 200.0	86 782 448.0

Халқ депутатлари Учқудуқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
5-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

SHahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**36 139 248,0**
shundan	
Uchquduq tumani	36 139 248,0

Халқ депутатлари Учқудуқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-93-5-76-K/21-сон қарорига
6-илова

Tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**532 149,0**
	shundan	
3	Uchquduq tumani	532 149,0